

JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI: MILLIY VA XORIJIY MASALALAR YUZASIDAN TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Toshkent davlat transport universiteti

Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi)

*yo'nalishi talabasi : **Normurodov Sherzod Shuxratovich***

Annotatsiya

Mazkur maqolada jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi elementlarining ahamiyati qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi xorijiy davlatlar, xususan Rossiya, Moldova, Germaniya, Janubiy Koreya va Avstraliya jinoyat qonunchiligi bilan taqqoslab tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari, jinoyat subyekti yoshi, ayb shakllari hamda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi o'ziga xos yondashuvlar yoritib berilgan. Xorijiy tajriba asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы квалификации преступлений с точки зрения элементов состава преступления на основе сравнительно-правового анализа. Проводится сопоставление уголовного законодательства Республики Узбекистан с уголовным законодательством России, Молдовы, Германии, Южной Кореи и Австралии. В ходе исследования анализируются объективные и субъективные признаки состава преступления, возраст субъекта преступления, формы вины, а также особенности квалификации преступных деяний. На основе зарубежного опыта сформулированы предложения по совершенствованию национального уголовного законодательства.

Abstract

This article examines the issues of crime qualification through a comparative legal analysis of the elements of a criminal offence. The criminal legislation of the Republic of

Uzbekistan is compared with the criminal laws of Russia, Moldova, Germany, South Korea, and Australia. The study analyzes the objective and subjective elements of crimes, the age of criminal responsibility, forms of guilt, and specific approaches to crime qualification. Based on foreign experience, scientific and practical proposals aimed at improving national criminal legislation are presented.

Kirish qismi

Hozirgi globallashtirish sharoitida jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, jinoyatlarni to'g'ri va adolatli kvalifikatsiya qilish masalasi davlatlarning huquqni qo'llash amaliyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayoni jinoyat qonunchiligining mazmunini amaliyotga tatbiq etishning asosiy bosqichi bo'lib, aynan ushbu jarayonda shaxsning xatti-harakatiga to'g'ri huquqiy baho berilishi ta'minlanadi. Jinoyat tarkibi elementlarini noto'g'ri aniqlash yoki ularni yetarli darajada hisobga olmaslik tergov va sud amaliyotida xatolarga, pirovardida esa adolatsiz qarorlar chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi elementlarining — obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomonning — aniq belgilanishi muhim hisoblanadi. Mazkur elementlar jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqlash, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash hamda Jinoyat kodeksining tegishli normasini to'g'ri qo'llashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, jinoyat tarkibi institutining nazariy va amaliy ahamiyatini chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda turli davlatlarning jinoyat qonunchiligida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga bo'lgan yondashuvlar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ayrim mamlakatlarda jinoyat tarkibi tushunchasi va uning elementlari normativ darajada aniq mustahkamlangan bo'lsa, boshqa davlatlarda bu masala asosan huquqiy doktrina va sud amaliyoti orqali shakllangan. Xususan, Rossiya, Moldova, Germaniya, Janubiy Koreya va Avstraliya jinoyat qonunchiligida jinoyat tarkibi va jinoyat elementlariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning o'rganilishi milliy qonunchilikni takomillashtirish

uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi elementlarining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish, xorijiy davlatlar tajribasi asosida mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi”ning I bob 1-bandida jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya va muvofiqlashtirish nuqtayi nazaridan inventarizatsiya qilish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifa milliy jinoyat qonunchiligini zamonaviy xalqaro talablar asosida takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotida yagona va adolatli yondashuvni ta’minlashga qaratilgan. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, jinoyat tarkibining qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati masalasi Rossiya, Moldova, Germaniya, Janubiy Koreya va Avstraliya kabi davlatlar jinoyat qonunchiligi va huquqiy doktrinasini misolida ko‘rib chiqiladi hamda ularning yondashuvlari milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Bunday taqqoslash jinoyat-huquqiy normalarni qo‘llashdagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash, shuningdek milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi ko‘plab jihatlari bilan o‘zaro yaqin hisoblanadi. Shu bilan birga, qilmishni kvalifikatsiya qilish amaliyotida ayrim muhim farqlar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasi ikkinchi qismida jinoiy javobgarlikning asosi sifatida jinoyat tarkibi belgilab qo‘yilgan. Ushbu normaga ko‘ra, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Mazkur qoida sud va tergov organlaridan qilmishni jinoyat deb topish hamda uni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibining barcha elementlarini aniqlashni talab etadi. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida jinoyat tarkibining jinoiy javobgarlikdagi ahamiyati to‘g‘risida alohida norma mavjud emas. Biroq Rossiya jinoyat

huquqi nazariyasida jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibining klassik elementlari — jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni asosida huquqiy baho berish konsepsiyasi keng qo'llaniladi. Bu jihatdan Rossiya jinoyat huquqi doktrinasini milliy huquq tizimimizdagi yondashuvlarga yaqin bo'lib, qilmishga huquqiy baho berishda jinoyat tarkibining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xususan, V.N. Kudryavsev jinoyat tarkibining jinoiy javobgarlikni belgilashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, qilmishda jinoyat tarkibi belgilari yig'indisining mavjudligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun eng kam va ayni paytda yetarli asoslar mavjudligini anglatadi. "Eng kam" deganda, agar jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan kamida bittasi mavjud bo'lmasa, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emasligi tushuniladi. "Yetarli" deganda esa, shaxsni javobgarlikka tortish uchun jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilaridan tashqari qo'shimcha ma'lumotlarni aniqlash zarurati mavjud emasligi nazarda tutiladi.¹

Mazkur yondashuv milliy huquqshunos olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Jumladan, M. Usmonaliyev va P. Bakunov jinoyat tarkibini jinoyat qonunida nazarda tutilgan muayyan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning jinoiyligini ifodalovchi belgilar, ya'ni elementlar yig'indisi sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, aynan ushbu belgilar majmui qilmishga jinoyat-huquqiy baho berish imkonini yaratadi. Shuningdek, A.S. Yoqubov va R. Kabulov jinoyat tarkibini jinoyat qonunchiligida aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb e'tirof etish uchun zarur bo'lgan eng kam va yetarli obyektiv hamda subyektiv belgilar yig'indisi sifatida izohlaydi. F. Xudoyqulov esa jinoyat tarkibini har qanday jinoyatning tashqi va ichki tuzilishini ifodalovchi obyektiv va subyektiv belgilarining minimal va yetarli majmui sifatida tavsiflaydi.

Keltirilgan ilmiy qarashlar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, ularning barchasi jinoyat tarkibining jinoiy javobgarlikni belgilashdagi hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi.

¹ Xudoyqulov F.X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ularning obyektiv va subyektiv belgilari o'zaro munosabati // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – 6-jild, 11-son.

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, jinoyat tarkibi — bu sodir etilgan qilmishni jinoyat deb topish uchun zarur va yetarli bo'lgan belgilar yig'indisidir. Qonunda belgilangan zaruriy belgilaridan hech bo'lmaganda bittasining mavjud emasligi qilmishning jinoiyligini istisno qiladi.

Jinoyat tarkibi nafaqat qilmishni jinoyat deb topishda, balki uni jinoyat qonunchiligidagi muayyan norma bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilishda ham birlamchi ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasi birinchi qismi hamda Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 19-moddasiga muvofiq, qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat subyektining uchta asosiy belgisi zaruriy hisoblanadi: birinchidan, shaxsning jismoniy shaxs bo'lishi; ikkinchidan, jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan bo'lishi; uchinchidan, aqli raso bo'lishi. Demak, har ikki davlat jinoyat qonunchiligida jinoyat subyektining asosiy belgilari bir xil yondashuv asosida belgilangan.²

Biroq jinoiy javobgarlik yoshini belgilash masalasida ayrim farqlar mavjud. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 20-moddasida jinoiy javobgarlikka tortishning ikki xil yoshi nazarda tutilgan bo'lib, umumiy javobgarlik yoshi 16 yosh etib belgilangan, ayrim jinoyatlar uchun esa javobgarlik 14 yoshdan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq esa, qilmishning xususiyatiga qarab, shaxs 13, 14, 16 yoki 18 yoshdan jinoyat subyekti sifatida javobgar bo'lishi mumkin. Mazkur farq qilmishni jinoyat subyekti belgilaridan kelib chiqib kvalifikatsiya qilishda har ikki davlat o'ziga xos huquqiy yondashuv va tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 105-moddasida qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur modda ikki qismdan iborat bo'lib, og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyati ikkinchi qism bilan kvalifikatsiya qilinadi. E'tiborga molik jihati shundaki, ushbu moddaning har ikkala qismi bo'yicha ham jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 14 yosh etib belgilangan.

² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr. – Amaldagi tahrir // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

Bundan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi subyekt yoshi masalasida differensial yondashuvni nazarda tutadi. Xususan, 97-moddaning birinchi qismi — qasddan odam o'ldirish uchun jinoyat subyekt yoshi 14 yosh etib belgilangan bo'lsa, ikkinchi qismi — og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun 13 yoshdan jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Ta'kidlash lozimki, amaldagi Jinoyat kodeksida 13 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortish faqatgina 97-moddaning ikkinchi qismi uchun belgilangan bo'lib, bu holat mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligi boshqa jinoyatlarga nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi.

Biroq qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, nafaqat Rossiya Federatsiyasida, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining boshqa davlatlarida, shuningdek Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan huquq tizimiga ega mamlakatlarda ham qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 14 yosh etib belgilangan. Fuqarolik huquqida esa 14 yoshga to'lmagan shaxslar kichik yoshdagi bolalar toifasiga kiritiladi va ular ayrim hollarda o'z xatti-harakatlarining xususiyati hamda uning oqibatlarini to'liq anglab yetmasligi mumkin.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasining har ikkala qismi uchun jinoyat subyekt yoshini 14 yosh etib belgilash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunday o'zgarish jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga, shuningdek jinoyat qonunchiligida belgilangan insonparvarlik va odillik prinsiplarining yanada izchil ta'minlanishiga xizmat qiladi.³

Shu bilan birga, Rossiya jinoyat qonunchiligida bir qator jinoyatlar mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida alohida jinoyat sifatida mustaqil norma bilan nazarda tutilmagan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 164-moddasida talon-toraj qilish usulidan qat'i nazar, tarixiy, ilmiy, badiiy va madaniy jihatdan alohida qimmatga ega bo'lgan hujjatlar yoki obyektlarni g'ayriqonuniy ravishda egallash

³ Yoqubov A.S., Kabulov R.A. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.

uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu norma doirasida talon-toraj qilish usullari sifatida o'g'irlik, talonchilik, firibgarlik, tovlamachilik va boshqa g'ayriqonuniy harakatlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida esa tarixiy, ilmiy, badiiy va madaniy jihatdan alohida qimmatga ega bo'lgan hujjatlar yoki obyektlarni g'ayriqonuniy ravishda egallash alohida jinoyat tarkibi sifatida ajratilmagan. Bunday holatlarda qilmish sodir etilish usulidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining 164–169-moddalaridan biri bilan kvalifikatsiya qilinadi. Demak, Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligida alohida qimmatga ega bo'lgan hujjatlar va obyektlar jinoyatning maxsus obyekti sifatida mustaqil norma bilan himoyalangan bo'lib, bu qilmishni o'g'irlik, talonchilik yoki firibgarlik kabi jinoyatlar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish zaruratini istisno etadi.

Moldova Respublikasining jinoyat qonunchiligini o'rganish jarayonida milliy qonunchiligimizga o'xshash jihatlar bilan bir qatorda, muayyan farqlarga ham duch kelinadi. Jumladan, Moldova Jinoyat kodeksida jinoyat tarkibining ahamiyati alohida norma bilan mustahkamlangan. Xususan, Kodeksning 15-moddasiga muvofiq, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyat tarkibining asosiy elementlari — obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomonni tavsiflovchi holatlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Mazkur qoidadan kelib chiqadiki, jinoyat tarkibi elementlari qilmishni nafaqat jinoyat deb topishda, balki uning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash va tegishli norma bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilishda ham markaziy o'rin tutadi.

Moldova Jinoyat kodeksining 17- va 18-moddalarida jinoyatning subyektiv tomoniga oid masalalar yoritilib, aybning shakllari sifatida qasd va ehtiyotsizlik tushunchalarining mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligiga o'xshash tarzda, Moldova Jinoyat kodeksida ham murakkab aybli jinoyatlar nazarda tutilgan bo'lib, ular “aybning ikki xil shakli orqali jinoyat sodir etish” tushunchasi bilan ifodalanadi va kvalifikatsiya jarayonida bitta jinoyat sifatida baholanadi.

Moldova Jinoyat kodeksining 19-moddasiga ko'ra, agar qasddan sodir etilgan jinoyat qonunda og'irroq jazo nazarda tutilgan og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa va bu oqibatlar jinoyatchining qasdi bilan qamrab olinmagan bo'lsa, ushbu oqibatlar uchun jinoiy

javobgarlik faqat shaxs ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'rgan, ammo ularning yuz bermasligiga asossiz ravishda ishongan yoki bunday oqibatlarni oldindan ko'rmagan bo'lsa-da, vaziyatga ko'ra ko'rishi mumkin va lozim bo'lgan taqdirdagina kelib chiqadi. Bunday hollarda jinoyat qasddan sodir etilgan deb e'tirof etiladi. Mazkur normaning mazmuni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 23-moddasida belgilangan qoidalarga mos keladi. Demak, murakkab aybli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish amaliyoti O'zbekiston va Moldova jinoyat qonunchiligida deyarli bir xil yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Moldova Jinoyat kodeksiga ko'ra, jinoyat subyekti uchun umumiy jinoiy javobgarlik yoshi 16 yosh etib belgilangan. Shu bilan birga, ayrim jinoyatlar bo'yicha (ularning ro'yxati Kodeksning 21-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan) shaxs 14 yoshdan ham jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu jihat ham O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi differensial yondashuvga o'xshashdir.

Eng diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, Moldova jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslarning ham jinoiy javobgarligi nazarda tutilgan. Xususan, Jinoyat kodeksining 21-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, jamoat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lmagan yuridik shaxslar muayyan shartlar mavjud bo'lgan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ushbu yondashuv Moldova jinoyat huquqining o'ziga xos jihati bo'lib, u yuridik shaxslar faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Moldova Respublikasi jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasi alohida tartibga solingan. Xususan, Jinoyat kodeksida yuridik shaxs quyidagi hollardan kamida bittasi mavjud bo'lganda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan: birinchidan, yuridik shaxs muayyan harakatni qilmaslik yoki ma'lum majburiyatni bajarishni nazarda tutuvchi qonun talablariga rioya etmagan bo'lsa; ikkinchidan, yuridik shaxs o'zining belgilangan maqsadlari va moliyaviy-hisob hujjatlariga zid ravishda faoliyat olib borgan bo'lsa; uchinchidan, yuridik shaxsning yoki uning nomidan ish yuritishga vakolatli mansabdor shaxsning manfaatlari yo'lida sodir etilgan harakatlar shaxsga, jamiyatga yoki davlatga katta zarar yetkazgan bo'lsa. Shu bilan

birga, qonunchilikda yuridik shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lgan jismoniy shaxsni javobgarlikdan ozod etmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.⁴

Mazkur normaning mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, yuridik shaxs faoliyatida jinoyat belgilari aniqlangan taqdirda, ham yuridik shaxsning o'zi, ham jinoyatda aybdor bo'lgan jismoniy shaxs (masalan, yuridik shaxs rahbari yoki mas'ul xodimi) jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha, yuridik shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda, milliy qonunchiligimizdagi yondashuvdan kelib chiqib, faqat aybdor bo'lgan jismoniy shaxsni jinoyat subyekti sifatida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki jismoniy shaxsning individual aybi mavjud bo'lmagan holda yuridik shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish adolat va shaxsiy javobgarlik prinsiplariga to'liq mos kelmaydi.⁵

Germaniya Jinoyat kodeksida “jinoyat tarkibi” tushunchasi alohida norma sifatida mustahkamlanmagan bo'lsa-da, kodeksning Umumiy qismidagi 13–15-moddalarda jinoyatning harakat yoki harakatsizlik shaklida, shuningdek qasd yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilishi mumkinligi belgilangan. Jumladan, Jinoyat kodeksining 13-moddasiga ko'ra, qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatning oldini olish majburiyati bo'lgan shaxs tomonidan bunday harakatning qilinmasligi jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Kodeksning 15-moddasida esa, agar qonunda ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan harakat uchun jazo nazarda tutilmagan bo'lsa, faqat qasddan sodir etilgan qilmish jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Mazkur normalar Germaniya jinoyat huquqida ham jinoyatning obyektiv va subyektiv tomonlari qilmishni jinoyat deb topish hamda uni muayyan norma bilan kvalifikatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan,

⁴ Xudoyqulov F.X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ularning obyektiv va subyektiv belgilari o'zaro munosabati // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – 6-jild, 11-son.

⁵ Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi. – 2002-yil 18-aprel. – Amaldagi tahrir.

qilmishning qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganligini aniqlash obyektiv tomondan o'xshash jinoyatlarni bir-biridan farqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksida jinoyat subyektiga oid muhim belgilar ham mustahkamlangan. Jumladan, 19-moddaga muvofiq, jinoyat sodir etilgan vaqtda 14 yoshga to'lmagan shaxs aybsiz holda harakat qilgan deb e'tirof etiladi. Ushbu norma jinoyat subyekti yoshini belgilash orqali kvalifikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, Germaniyada shaxs 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Jinoyat subyekti bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishda shaxsning aqli rasoligi ham albatta tekshiriladi, chunki ushbu belgi Germaniya Jinoyat kodeksida jinoyat subyektining zaruriy belgilaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Germaniya jinoyat qonunchiligining milliy qonunchiligimizga o'xshash jihatlaridan yana biri — jinoyatga suiqasd qilganlik uchun ham jazoning mavjudligidir. Kodeksning 23-moddasiga muvofiq, jinoyatning tugallanganligi yoki suiqasd bosqichida qolganligi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi, bu holat faqat sud tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinadi. Respublikamiz va Germaniya jinoyat qonunchiligi o'rtasidagi ushbu umumiylik har ikki davlat huquq tizimining romano-german huquq oilasiga mansubligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, Germaniya jinoyat huquqidagi ayrim yondashuvlarni, xususan jinoyat subyekti yoshini belgilash masalasidagi tajribani milliy qonunchiligimizga joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi bo'yicha ham jinoyat subyekti yoshini 14 yosh etib belgilash insonparvarlik va adolat prinsiplariga mos keladi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida Janubiy Koreya o'zining rivojlangan jinoyat-huquqiy tizimi bilan ajralib turadi. Ushbu davlat Jinoyat kodeksining Umumiy qismida jinoiy javobgarlik yoshi, aqli noraso shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi, qasd va ehtiyotsizlik, harakat yoki harakatsizlik orqali jinoyat sodir etish kabi jinoyat tarkibining zaruriy belgilari batafsil yoritilgan. Ushbu belgilar har bir jinoyat uchun majburiy bo'lib, ularning mavjud bo'lmasligi qilmishni jinoyat sifatida baholash imkonini bermaydi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining ayrim moddalarida jinoyat tarkibining zaruriy belgilari bevosita dispozitsiyada ko'rsatilgan bo'lsa, ayrim hollarda ular jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib aniqlanadi. Masalan, Kodeksning XIII bobida nazarda tutilgan yashash joyiga o't qo'yish, jamoat binolari yoki boshqa obyektlarga o't qo'yish jinoyatlari faqat qasddan sodir etilgan taqdirda jinoyat hisoblanadi. Agar ushbu qilmishlar ehtiyotsizlik natijasida sodir etilsa, ular boshqa modda bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bu holat aybning shakli obyektiv tomondan o'xshash jinoyatlarni farqlashda muhim mezon ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Janubiy Koreya jinoyat qonunchiligida jinoyat subyekti yoki jinoyat predmetiga oid ayrim fakultativ belgilar jinoyat tarkibining zaruriy belgisiga aylantirilgan. Jumladan, mansabdor shaxs tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarmaslik yoki pora olish jinoyatlarida jinoyat subyekti albatta mansabdor shaxs bo'lishi shart. Xuddi shuningdek, bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatida subyekt sifatida faqat guvoh jalb etilishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim jinoyatlarda jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, sharoit yoki usul obyektiv tomonning zaruriy belgisi sifatida belgilanadi. Masalan, suv toshqini vaqtida himoya inshootlariga zarar yetkazish jinoyatida aynan "suv toshqini payti" sharoiti mavjud bo'lmasa, qilmishni mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas.

Xorijiy davlatlarning jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bo'yicha tajribasi o'rganilganda, Avstraliya jinoyat qonunchiligi o'ziga xos yondashuvi bilan ajralib turishi kuzatiladi. Boshqa ko'plab davlatlardan farqli o'laroq, Avstraliya Jinoyat kodeksining Umumiy qismida "jinoyat elementlari" (elements of offence) tushunchasi, ularning tasnifi va jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Xususan, Kodeksning 3.1-moddasiga ko'ra, jinoyat moddiy elementlar va ayb elementlaridan (physical and fault elements) tashkil topadi.

Kodeksning 4.1-moddasida jinoyatning moddiy elementlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: xulq-atvor (conduct), xulq-atvor natijasi (a result of conduct) hamda xulq-atvor va uning natijasi o'rtasidagi holat (circumstance). Ushbu elementlar orasida xulq-atvor ikki shaklda namoyon bo'ladi, ya'ni harakat (act) va harakatsizlik (omission). Milliy jinoyat qonunchiligimiz bilan qiyoslaganda, harakat va harakatsizlikni o'z ichiga olgan

xulq-atvor ijtimoiy xavfli qilmishga, xulq-atvor natijasi ijtimoiy xavfli oqibatga, xulq-atvor va uning natijasi o'rtasidagi holat esa ijtimoiy xavfli qilmish bilan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishga mos keladi. Shu bois Avstraliya Jinoyat kodeksida belgilangan moddiy elementlarni jinoyatning obyektiv tomoni sifatida baholash mumkin.⁶

Avstraliya Jinoyat kodeksining 5.1-moddasiga muvofiq, jinoyatning ayb elementlari qasd (intention), xabardorlik (knowledge), beparvolik (recklessness) va ehtiyotsizlik (negligence) shakllarida namoyon bo'lishi mumkin. Milliy jinoyat qonunchiligimizda aybning qasd va ehtiyotsizlik shakllari nazarda tutilgan bo'lsa, Avstraliya jinoyat huquqida xabardorlik va beparvolik alohida ayb shakllari sifatida ajratib ko'rsatilgan. Aslida, bu tushunchalar mazmunan milliy huquq tizimimizga begona emas. Xabardorlik deganda shaxsning o'zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglab yetishi va uning oqibatlarini oldindan bilishi tushuniladi, beparvolik esa ehtiyotsizlikning bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, Avstraliya Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan aybning to'rt shakli jinoyatning subyektiv tomonini tashkil etadi.

Garchi Avstraliya Jinoyat kodeksida jinoyat obykti tushunchasi alohida norma bilan ifodalanmagan bo'lsa-da, jinoyat qonunidagi har bir norma muayyan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, ular jinoyat obykti sifatida namoyon bo'ladi. Jinoyat subyektiga oid masalalarda esa Kodeksda yosh va aqliy sog'lomlik belgilari mustahkamlangan. Yuqorida Rossiya, Moldova, Germaniya va Janubiy Koreya jinoyat qonunchiligi tahlil qilinganda, jinoyat subykti yoshining minimal chegarasi 14 yosh etib belgilanganini ko'rish mumkin edi. Avstraliya jinoyat qonunchiligida esa ushbu chegara ancha past bo'lib, 10 yosh etib belgilangan.

Xususan, Avstraliya Jinoyat kodeksining 7.1-moddasiga ko'ra, 10 yoshga to'lmagan bolalar jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Kodeksning 7.2-moddasida esa 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan shaxslar faqatgina o'z xulq-atvorining huquqqa xilofligini anglay olgan taqdirdagina jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi belgilangan. Bu norma

⁶ Xudoyqulov F.X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ularning obyektiv va subyektiv belgilari o'zaro munosabati // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – 6-jild, 11-son.

jinoyat subyekting yoshi bilan bir qatorda, uning ruhiy yetukligi va ongli ravishda harakat qilganligini aniqlashni talab etadi.

Shunday qilib, Avstraliya Jinoyat kodeksiga muvofiq qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning barcha moddiy va ayb elementlari aniqlanishi zarur. Ushbu yondashuv jinoyatlarni baholashda tizimli va aniq mezonlarni belgilashi bilan ajralib turadi hamda qilmishga huquqiy baho berishda jinoyat tarkibi elementlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, garchi yuqoridagi davlatlar qilmish uchun turli xil jinoiy javobgarlikni belgilasa-da, ularning barchasida qilmishni kvalifikatsiya qilish jinoyat tarkibi belgilaridan kelib chiqib, amalga oshiriladi. Ya'ni, real hayotda sodir etilgan bitta qilmishni boshqasidan farqlash uchun unga xos bo'lgan belgilar jinoyat qonunida javobgarlik belgilangan jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilari bilan taqqoslab ko'riladi. Sodir etilgan qilmishning belgilari jinoyat qonunidagi qaysi modda belgilari bilan mos tushsa, qilmish aynan o'sha modda bilan kvalifikatsiya qilinib, jazo ham mazkur modda sanksiyasi doirasida tayinlanadi. Shu bilan birga, amaliyotda ba'zan sud-tergov organlari tomonidan jinoyat tarkibi barcha elementlarining aniqlanmasligi sababli jinoyat hisoblanmagan qilmishlarni jinoyat deb topish yoki qilmishni boshqa jinoyat sifatida noto'g'ri kvalifikatsiya qilish holatlarning oldini olish maqsadida faqat jinoyat huquqi nazariyasida emas, balki Moldova va Avstraliya tajribasida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida ham jinoyat tarkibi elementlarini aniq ko'rsatish va JK 16-moddasini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz: "Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari: obyekt, subyekt, obyektiv tomon va subyektiv tomon belgilari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi". Fikrimizcha, modda dispozitsiyasini bu tarzda ifodalash qilmishni kvalifikatsiya qilishga vakolatli bo'lgan shaxslarning jinoyat tarkibi barcha elementlarini aniqlashiga va unga to'g'ri baho berishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-3723-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – Amaldagi tahrir.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr. – Amaldagi tahrir // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

3. Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификации преступлений. – Москва: Норма, 2007.

4. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: Nasaf, 2010.

5. Yoqubov A.S., Kabulov R.A. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.

6. Xudoyqulov F.X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ularning obyektiv va subyektiv belgilari o‘zaro munosabati // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2021. – 6-jild, 11-son.

7. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. – 1996-yil 13-iyun. – Amaldagi tahrir.

8. Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi. – 2002-yil 18-aprel. – Amaldagi tahrir.

9. Germaniya Jinoyat kodeksi (Strafgesetzbuch). – Amaldagi tahrir.

10. Janubiy Koreya Respublikasi Jinoyat kodeksi. – 1953-yil 18-sentabr. – Amaldagi tahrir.

11. Avstraliya Jinoyat kodeksi (Criminal Code Act 1995). – Amaldagi tahrir.